

UDK: 378.147:811.111(575)

Qadirova Dilnoza Baxtiyorovna

Namangan davlat universiteti,

Jahon tillar fakulteti,

Ingliz tili kafedrası katta o'qituvchisi

mkdilnoz.qodirovaxon@gmail.com

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI
TALABALARIDA MILLIY VA UMUMMADANIY
KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Globalizatsiya sharoitida ta'lim mazmuni nafaqat til ko'nikmalarini egallashga, balki talabalarning o'z milliy qadriyatlariga hurmat, boshqa madaniyatlar bilan tanishish va o'zaro madaniy muloqotga tayyor bo'lishlariga ham yo'naltirilishi zarur. Shu maqsadda, tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, internet resurslari, multimedia vositalari, madaniy kontekstli topshiriqlar va interaktiv metodlardan samarali foydalanish yo'llari o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tili darslarida milliy madaniyatni aks ettiruvchi materiallardan foydalanish va umuminsoniy qadriyatlar asosida muloqotga undovchi topshiriqlar talabalarning madaniy kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shuningdek, metodik tavsiyalar asosida yaratilgan innovatsion texnologiyalar modelining amaliy sinovi uning samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: Milliy madaniyat, umum madaniy kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, ingliz tili, internet resurslari, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ yondashuv, innovatsion texnologiyalar.

УДК: 378.147:811.111(575)

Кади́рова Дилно́за Бахтиёровна

Наманганский государственный университет,

Факультет мировых языков,

Старший преподаватель кафедры английского языка

mkdilnoz.qodirovaxon@gmail.com

ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: В данной статье освещены актуальные вопросы формирования и совершенствования национальных и общекультурных компетенций у студентов направления начального образования в процессе обучения английскому языку. В условиях глобализации образовательный процесс должен быть направлен не только на освоение языковых навыков, но и на воспитание уважительного отношения к национальным ценностям, ознакомление с другими культурами и формирование готовности к межкультурной коммуникации. В исследовании анализируются эффективные пути использования современных педагогических технологий, интернет-ресурсов, мультимедийных средств, заданий с культурным контекстом и интерактивных методов. Результаты исследования показали, что использование материалов, отражающих национальную культуру, и заданий, побуждающих к общению на основе общечеловеческих ценностей, способствует значительному развитию культурной компетенции студентов. Кроме того, экспериментальное внедрение модели инновационных технологий, разработанной на основе методических рекомендаций, доказало свою эффективность.

Ключевые слова: национальная культура, общекультурная компетенция, начальное образование, английский язык, интернет-ресурсы, интерактивные методы, информационные технологии, межкультурная коммуникация, коммуникативный подход, инновационные технологии.

UDC: 378.147:811.111(575)

Kadirova Dilnoza Bakhtiyarovna

Namangan State University,

Faculty of World Languages,

Senior Lecturer of the Department of English

Abstract: This research explores the urgent pedagogical challenges associated with the development and enhancement of national and cross-cultural competences among Primary Education students during the process of English language teaching. In the context of globalization, educational content should aim not only at language proficiency but also at fostering students' appreciation of their national heritage, exposure to diverse cultures, and readiness for intercultural communication. The study examines the effective integration of modern pedagogical technologies, online resources, multimedia tools, culturally contextualized tasks, and interactive methods in language instruction. The findings demonstrate that the use of materials reflecting national culture and communicative tasks based on universal values significantly improve students' cultural competences. Moreover, the experimental application of the innovative technological model, developed based on methodological recommendations, confirmed its practical effectiveness in real classroom settings.

Keywords: National culture, cross-cultural competence, primary education, English language teaching, internet resources, interactive methods, information technologies, intercultural communication, communicative approach, innovative technologies.

Kirish

XXI asrda ta'lim sohasi global integratsiya jarayonlari ta'sirida tub o'zgarishlarga duch kelmoqda. Ayniqsa, xorijiy til, xususan, ingliz tilini o'qitish jarayonida nafaqat til ko'nikmalari, balki madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari kelajakda yosh avlodni tarbiyalaydigan pedagoglar bo'lib, ularning madaniy ongini kengaytirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirish zarur. Global kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida ingliz tili dunyo miqyosida asosiy aloqa vositasiga aylangan. Bu esa o'quvchilarning nafaqat

tilni bilishini, balki madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo'lishini ham taqozo etadi. Shu bois, tilini o'qitishda madaniy kontekstga ega yondashuvlar, madaniyatlararo taqqoslashlar, milliy qadriyatlarning ingliz tilida ifodalanishi bo'yicha topshiriqlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi [1].

Shuningdek, madaniy kompetensiyalarni shakllantirishda kommunikativ yondashuvlar, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va multimediamiy resurslarning integratsiyasi orqali talabalar til va madaniyatni uzviy tarzda o'zlashtira boshlaydi. Bu jarayon o'qituvchidan ham innovatsion yondashuvni, ham madaniy sezgirlikni talab qiladi. Shuning uchun ushbu maqolada aynan boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlashda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalarining nazariy asoslari, amaliy yechimlari va ularning samaradorligi chuqur tahlil qilinadi.

Metodologiya

Ushbu maqolaning metodologik asoslari zamonaviy til ta'limi nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv va madaniyatlararo kommunikatsiya pedagogikasiga tayanadi. Asosiy maqsad — ingliz tilini o'rganish jarayonida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining milliy va umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalarni aniqlash, ularni amaliyotda qo'llash samaradorligini aniqlashdan iborat. Maqola kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik ta'lim nazariyasi, madaniyatlararo muloqot va faoliyatga asoslangan ta'lim konsepsiyalariga tayanadi. Ushbu yondashuvlar o'rganilayotgan muammoning mohiyatini tushunishga, talabaning madaniy ongini, identitetini, kommunikativ layoqatini shakllantirishda texnologiyalar rolini chuqur tahlil qilishga imkon beradi [2, 3]. Ilmiy maqolada yarim eksperimental uslub tanlandi. "Tajriba "oraliq test – aralashuv – yakuniy test" modeli asosida olib borildi.

Unda ikki guruh shakllantirildi:

1. **Tajriba guruh (TG)** – innovatsion texnologiyalar asosida mashg'ulotlar tashkil etilgan guruh.

2. **Nazorat guruhi (NG)** – an'anaviy metodlar asosida darslar olib borilgan guruh.

Tadqiqot Namangan davlat universitetining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 120 nafar 2-kurs talabasi ishtirokida olib borildi. Har bir guruh 60 nafardan iborat bo'lib, talabalar teng sharoitda tasodifiy tanlov asosida guruhlarga saralab olindi.

Tadqiqotda quyidagi empirik va statistik usullar qo'llanildi:

1. **Diagnostic testlar** – talabalar tomonidan ingliz tilida madaniy kontekstda muloqotga kirishish malakasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan.
2. **So'rovnomalar** – talabalar dunyoqarashi, madaniyatga bo'lgan qiziqishi, milliy qadriyatlarni anglashi, boshqa madaniyat vakillariga munosabatini o'rganish uchun.
3. **Kuzatuv** – mashg'ulot jarayonida talabalar faoliyati, madaniy nutq shakllari va o'zaro munosabatlarining o'zgarishlarini real vaqtda kuzatish asosida baholandi.
4. **Intervyular** – chuqurlashtirilgan suhbatlar orqali talabalar fikrlari va his-tuyg'ulari tahlil qilindi.
5. **Portfolio va topshiriqlar** – madaniy mazmundagi yozma ishlanmalar, ijodiy topshiriqlar (tadbir ssenariylari, roliklar, taqdimotlar) orqali kompetensiyalarning rivojlanish darajasi baholandi [3]

Tajriba qo'llangan texnologiyalar

Tajriba o'tkazilgan guruhda quyidagi pedagogik texnologiyalar qo'llandi:

- **Internet-resurslar asosida o'qitish texnologiyasi** (TED-ED, British Council, National Geographic Learning)
- **Madaniyatlararo trening mashg'ulotlari** (etnografik vaziyatlar, interaktiv rolli o'yinlar)

- **Lingvomadaniy materiallar bilan ishlash texnologiyasi** (xalq urf-odatlar, bayramlar, adabiyotlar bilan bog'liq topshiriqlar)
- **Veb-quest texnologiyasi** – talabalarni mustaqil izlanishga va o'z madaniy qarashlarini ingliz tilida ifodalashga yo'naltirish

Ma'lumotlarni tahlil qilish

Olingan natijalar miqdoriy va sifatli tahlil usullari orqali baholandi:

- **T-test** yordamida eksperimental va nazorat guruhlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchliligi aniqlandi.
- **Deskriptiv statistika** (o'rtacha ko'rsatkich, dispersiya, standart og'ish) asosida umumiy dinamik o'zgarishlar aniqlangan.
- **Tematik tahlil** orqali intervyularda ko'tarilgan asosiy g'oyalar, muammolar, subyektiv qarashlar tizimlashtirildi.

Tadqiqotda foydalanilgan test va so'rovnomalar ekspertiza asosida ishlab chiqilgan. Barcha ishtirokchilardan yozma rozilik olingan, ularning anonimligi va maxfiyligiga to'liq rioya qilingan [4].

Natijalar

Tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi asosiy yutuqlarga erishildi:

- Tajriba guruhidagi talabalar nazorat guruhiga nisbatan madaniy ifoda vositalaridan foydalana olishda yuqori natijalarni ko'rsatdi.
- Milliy qadriyatlarni ingliz tilida ifodalash bo'yicha yaratilgan topshiriqlar orqali talabalar o'zlarining milliy identifikatsiyasini angladi va uni chet tilida ifodalashga o'rgandi [5].

-So'rovnoma natijalariga ko'ra 87% talaba ingliz tilini o'rganishda madaniy materiallardan foydalanish motivatsiyani oshirganini qayd etdi.

-Internet resurslar asosida tashkil etilgan virtual madaniy ekskursiyalar orqali talabalar boshqa mamlakatlar madaniyatiga nisbatan hurmat va qiziqish bilan yondasha boshladi [6].

Quyidagi jadvalda nazorat va tajriba guruhleri natijalari ko'rsatilgan:

<u>Kompetensiya turi</u>	<u>Nazorat guruhi (boshlanish)</u>	<u>Tajriba guruhi (boshlanish)</u>	<u>Nazorat guruhi (yakuniy)</u>	<u>Tajriba guruhi (yakuniy)</u>
<u>Milliy qadriyatlarni anglashi (%)</u>	45%	43%	58%	81%
<u>Umummadaniy kontekstda muloqot (%)</u>	38%	40%	55%	84%
<u>Madaniy loyihalarda ishtiroki (%)</u>	30%	32%	49%	79%

Misol uchun, “Navro‘z bayrami” haqida ingliz tilida tayyorlangan loyihaviy taqdimotlar talabalar orasida katta qiziqish uyg‘otdi va ularning nutqiy faoliyatini rivojlantirishida muhim omil bo‘ldi.

Munozara

Tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitishda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali samarali tarzda amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Xususan, tajriba guruhi bilan olib borilgan ishlar shuni ko‘rsatdiki, madaniy kontekstga ega topshiriqlar, milliy qadriyatlarni ingliz tilida ifodalashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar talabalar ongida madaniyatlararo anglashuvni oshiradi [7]. Shuningdek, multimedia vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish, o‘quvchilarda o‘z madaniyatini baholash va boshqa madaniyatlarni hurmat qilishga yordam berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, madaniy komponentlarning ingliz tili darslariga integratsiyasi o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirdi. Tadqiqotda qo‘llangan “juftlikda o‘rganish” metodikasi talabalar o‘rtasida madaniyatlararo muloqotni samarali shakllantirgan, shuningdek, o‘z fikrini muloqotda erkin ifodalashga

yordam bergan. Anketalar natijalari ham talabalar tomonidan bu yondashuv yuqori baholangani va ularning madaniy bilimlari kengaygani, fikrlash doirasi oshgani va ijtimoiy faolligi kuchaygani qayd etildi [8].

Natijalar o'quv jarayonida madaniy kompetensiyani rivojlantirish texnologiyalarining kompleks qo'llanilishi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Bundan tashqari, bunday yondashuvlar nafaqat til bilimini chuqurlashtirish, balki shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qilishi aniqlandi. [9].

Xulosa

Yakuniy xulosalar sifatida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

1.Ingliz tili darslarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadli yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar orqali samarali amalga oshadi.

2.Madaniyatlararo muloqotga asoslangan topshiriqlar talabalarni tilni madaniy kontekstda o'rganishga undaydi va ularning kommunikativ malakalarini rivojlantiradi.

3.Talabalarning milliy qadriyatlarga sodiqligi bilan birga, boshqa madaniyat vakillariga ochiq va tolerant munosabatda bo'lishi ularning pedagogik tayyorgarligida muhim rol o'ynaydi [10].

4.Taklif etilgan texnologiyalar modeli pedagogik ta'lim tizimida keng joriy etilishi mumkin bo'lgan samarali vosita hisoblanadi.Kelgusida bu sohadagi tadqiqotlar doirasini kengaytirish, boshqa ta'lim bosqichlari va fanlar bilan integratsiyalashuvini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bim, I. L. Lingvodidakticheskiye osnovy obucheniya inostrannym yazykam v sovremennoy shkole. Moskva: Russkiy Yazyk. -2000.

2.Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR). Strasbourg: Council of Europe. <https://www.coe.int/lang-cefr>. -2007

- 3.Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching (5th ed.). White Plains, NY: Pearson Education. -2007.
- 4.Karimov A. Chet tillarni o‘qitishda milliy qadriyatlar asosida kompetensiyalarni shakllantirish yo‘llari. -Toshkent: TDPU Ilmiy nashriyoti, 2019.
- 5.Xamidova, D. Ingliz tilini o‘qitishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o‘rni // Pedagogik ta’lim jurnali, 2021.- № 3(2).-B. 45–49.
- 6.Galskova, N. D., & Gez, N. ITeoriya obucheniya inostrannym yazykam. Lingvodidaktika i metodika. Moskva: Akademiya.-2004
- 7.Ganiyeva, M. R. Boshlang‘ich ta’limda chet tili darslarida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish yo‘llari // Til va adabiyot ta’limi, 2020.- №4(3).- B.112–118.
- 8.Zaripova, D. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida xorijiy til o‘qitish metodikasi// Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2022. -№ 1(1), B.56–60.
- 9.Kramersch, C. Language and Culture. Oxford: Oxford University Press.- 1998
- 10.Hymes, D. "On communicative competence." In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics. Penguin Books.-1968